

***Qiyosi yo'q bebaho makon,  
Ona yurtim, hur O'zbekiston!***

– Varragimni uchirgan zamon,  
Nur yog'dirar boshimda osmon, – deydi poytaxti-  
mizdagi 104-umumta'lim maktabining 6-«A» sinf  
o'quvchisi Umidbek KAMOLOV.

**Poytaxtimizning Shayxontohur tumanidagi  
20-umumta'lim maktabining 8-«A» sinf o'quvchilari  
Muslima Toshpo'latova hamda Islombek Hakimov  
maktab o'quvchilari o'rtasida o'tkazilgan «Sug'urta  
bolalar nigohida» rasmlar tanlovida 1-o'rin sohibi  
bo'lishdi.**

2-bet

***Gulzorlarda kezadi shodon,  
Diyoraxon va Abdullajon.***

# BAHORGA HAMOHANG BEG'UBORLIK...

Har yili fasllar kelinchagi bahor, yasharish va yangilanish ayyomi Navro'zi olamni intiqib kutamiz. Boychechag-u binafsalar, qoqigullar-u bodom, o'rik gullari «Salom Bahor! Salom Navro'zi!», deya shivirlayotganday bo'laveradi. Bunda butun olam o'zgaradi, zamin uyg'onadi. Tabiatning kamalak nurlari chehralarga ko'chadi, yuraklar mudroq uyqudan uyg'ongandek bo'ladi, go'yo...

Navro'z shukhi ko'ngillarga ajib bir zavq ulashayotgan bir paytda poytaxtimizning Sergeli tumanidagi 284-umumta'lim maktabida navbatdagi bayram tantanalari ko'tarinki ruhda bo'lib o'tdi. 3-«A» sinf o'quvchilari ishtirokida tashkil



etilgan mazkur tadbirga ustozlar va ota-onalar tashrif buyurishdi. Navro'zga bag'ishlangan ijodiy kecha sahnasi o'quvchilarning ijodiga mansub devoriy gazetalari bilan bezatildi. Bolajonlarning onalari yordamida tayyorlagan ko'k somsa-yu chuchvara, yalpiz non-u qatlama va shirinliklar bayram dasturxonini bezadi.

She'rlar kuy-qo'shiqqa, raqslarga ulandi. Ayniqsa, Shohsanam Abduqayumova, Xadicha Fayzullayeva



yaratgan Bahoroy, Navro'zoy timsollari, Diyorbek Abduvaliyev, Mushtariy Mamatovaning ingliz va turk tillaridagi qutlov she'rlari kechaga fayz kiritdi. Fotima Himmatova, Shahzod Jamolov, Dildora Baxtiyorovaning Navro'z tarixiga oid rivoyatlari, Niyatilla Sirojiddinovning bayramga bag'ishlab yozgan she'ri tadbir qatnashchilarida katta taassurot qoldirdi.

Xalqimiz qadimidan bu bayramni zo'r ko'tarinkilik bilan nishonlaganlar, deydi sinf rahbari Feruza Eshboyeva. Shunday ekan, ona tabiat, uning barcha ne'matlarini ko'z qorachig'idek asrab-avaylashimiz lozimligini har bir o'quvchi ongida shakllantirishga harakat qildik.

Murg'ak qalblarning har bir chiqishlarida bahorga hamohang beg'uborlik, pokiza tuyg'ular jilosi namoyon bo'ldi. Bahoriy tetiklik, farahbaxsh ayyom shodiyonasi yil davomida barchamizga hamroh bo'lsin.

**Nodira NAZAROVA**

*Bir yangi kun keldi, topolmadim so'z...*

Maktab hovlisi bayramona bezatilgan. Hamma joyga rang-barang gullar, sharlar ilingan.

## BAYRAM SHUKHI

Poytaxtimizning Shayxontohur tumanidagi 132-umumta'lim maktabi o'quvchilari bayramni ana shunday tantanali tarzda kutib oldi. 1-9-sinf o'quvchilari sinf rahbarlari boshchiligidagi turli qiziqarli o'yinlarda ishtirok etishdi. «Arqon tortish», «Topqirlar mashqi», «Tezkorlik bahsi», «Mo'jizalar maydoni» kabi qiziqarli o'yinlar barchaga birdek manzur bo'ldi.

Ayniqsa, bayramda qadimiy udumlarimizning yodga olinishi ishtirokchilar ma'naviy olamining boyishida katta xizmat qildi.

7-«V» sinf o'quvchilari tayyorlagan sahna ko'rinishlari va jozibali raqslar barchaga o'zgacha zavq ulashdi. Navro'z taomlari ko'rigida esa barcha sinflar o'zlarining pazandalik mahoratlarini namoyish etdilar. O'zgacha tarzda o'tgan bu bayram mehmonlar va ishtirokchilarda olam-olam taassurotlar qoldirdi.

**Muzaffar AHMEDOV**

## «KAMOLOT»DA KOKLAM NAFASI



Ko'klamoyim yurtimiz uzra sepin yoyib, daraxt-u o'to'lanlarni uyqudan uyg'otayotgan bir pallada yurtimizga Navro'zi olam kirib

keladi. Bunda kun-u tun tenglashadi, bobodehqon yaxshi niyat ila yerga urug' qadaydi... Yuqoridagi fikrlar «Kamolot» yoshlar ijtimoiy

harakati tomonidan «Navro'z sog'inchi» shiori ostida onlayn muloqotda bot-bot takrorlandi.

Tadbirda folklorshunos olim Omonulla Madayev, jurnalist Farhod Bobojonov, tarixchi Muborak Yunusxo'jayeva, aktrisa Muqaddas Xoliqova qatnashdilar.

Muloqot davomida ushbu bayram tarixi, uning milliy qadriyat sifatidagi ahamiyati, umumxalq bayramining barkamol avlod tarbiyasidagi o'rni, do'stlik, tinchlik va go'zallik bayramining umuminsoniy qadriyat sifatidagi mohiyati haqidagi fikrlarga mutaxassislar tomonidan batafsil to'xtalib o'tildi.

Veb saytga kelib tushgan 500 dan ortiq savollarga mualliflar muloqot davomida atroflicha javob olishdi.

**O. TURSUNBOYEVA**

«Kamolot» YOIH hamda «Kafolat» davlat aksiyadorlik sug'urta kompaniyasi bilan hamkorlikda umumta'lim maktablari o'quvchilari o'rtasida zamonaviy sug'urta faoliyati haqida tushuncha berish, ularda sug'urta madaniyatini shakllantirishga doir «Sug'urta bolalar nigohida» rasmlar tanlovi o'z nihoyasiga yetdi.

## SINFDOHLAR G'OLIB CHIQISHDI

Salkam ikki oy davom etgan mazkur tanlovda poytaxtimizda joylashgan 287 ta ta'lim muassasasidan 15000 ga yaqin yoshlar ishtirok etishdi.

«Yoshlar ijod saroyi»da maktab o'quvchilarning sug'urtaga oid 2000 dan ortiq ijodiy ishlar namoyishi bo'lib o'tdi. Ijodiy ishlar «Sug'urta mening tasavvurimda», «Sug'urta bilan kelajak sari» va «Kafolat» 18 yoshda nominatsiyalari orqali mutaxassislar va malakali hay'at a'zolari tomonidan baholandi. Matbuot anjumaniga ulanib ketgan taqdirlash marosimida har bir nominatsiya bo'yicha uch o'rin belgilanib, jami to'qqiz o'quvchi g'oliblikni qo'lga kiritdi. Quvonarlisi, birgina Shayxontohur tumanidagi 20-umumta'lim maktabining 8-«A» sinfidan Muslima Toshpo'latova «Kafolat» 18 yoshda nominatsiyasi bo'yicha 1-, Rahima Turg'unova esa 2-o'rin, «Sug'urta mening tasavvurimda» nominatsiyasida Islombek Hakimov 1-o'ringa loyiq topildi. Bundan tashqari, «Eng yaxshi g'oya muallifi», «Eng yaxshi mavzu», «Eng yaxshi kompozitsion rasm», «Eng yaxshi ijodiy yondashuv» hamda «Eng yaxshi sug'urta talqini» kabi qo'shimcha rag'batlantiruvchi o'rinlar aniqlandi. Tanlov g'oliblari muassis tashkilotlar tomonidan munosib taqdirlandi.

«Sug'urta bolalar nigohida» rasmlar tanlovi yosh avlod vakillarining ijtimoiy faolligini oshirish, tadbirkorlik ko'nikmalarini shakllantirish va dunyoqarashini kengaytirishga xizmat qilishi, shubhasiz.

**Nurbek NURALI o'g'li**



# QUMQO'RG'ONDAN 19 TA MAKTUB

Tahririyatimizga siz aziz o'quvchilardan ko'plab xatlar keladi. Xodimlarimiz uchun bu xatlar bilan tanishish olam-alam zavq bag'ishlaydi. Chunki bolajonlar nimani his qilgan bo'lsalar, xuddi o'shanday, hech qanday mubolag'alarsiz izhor qiladilar. Ulardagi samimiyat, beg'uborlik bizlarga kuch-quvvat bag'ishlaydi. Surxondaryo viloyati, Qumqo'rg'on tumanidagi «To'g'on» mahallasida istiqomat qiluvchi o'quvchilardan bir vaqtning o'zida tahririyatimizga o'ndan ziyod maktub kelibdi. Bundan biz ham juda xursand bo'ldik. Hech bir o'quvchi e'tibordan chetda qolmasligi kerak, degan shiorimizga amal qilgan holda o'quvchilarimizning dilmolaridan sizlarni ham bahramand etgimiz keldi.

**Gulhayo OMONTURDIYEVA**, 4-umumta'lim maktabi o'quvchisi: – Men bu yil bo'lib o'tadigan «Ingliz tili bilimdonlari» ko'rik-tanloviga tayyorgarlik ko'ryapman. Bunda menga «Tong yulduzi» yaqindan yordam bermoqda.

**Nafisa ESHBOYEVA**, 5-«A» sinf. «Oilamiz» she'rida bobosi-yu momosi, ota-onasi va oiladagi farzandlarning o'zaro mehr-oqibatlarini chiroyli tasvirlagan.

**Gulchehra MAJIYEVA**, «Yordamchi qiz» hikoyasida onasi va buvisining yaqin yordamchisi, hali maktabga chiqmay turib, o'qish, yozishni bilib olgan Mashhura ismli qizaloq haqida juda chiroyli hikoya qilib bergan.

**Ulug'bek KARIMOV**, 5-«V» sinf: – Olti yoshimdan beri «Tong yulduzi»ni o'qib boraman. Maktabimiz kutubxonasida esa o'zimni sehirli olamga tushib qolganday his qilaman.

**Nilufar TURSUNOVA**, 5-«V» sinf o'quvchisi: – Men ona tili va adabiyot, ingliz tili fanlariga qiziqaman. Bu fanlarni yaxshi o'zlashtirishimda «Tong yulduzi»ning yordami beqiyos.

respublikamizdagi salohiyatli, bilimdon yoshlar haqida qiziqarli ma'lumotlarning ko'p. Bu esa bizga yoqadi.

**Quvonchbek ERKINOV**, 5-«V» sinf: – Men sening sahifalaring bilan ilk tanishuvimdanox muxlislaringdan biriga aylanib qolganman.

**Mastona JO'RAQULOVA, Nurmuhammad MUHAMMADIYEV, Diyorbek RAHMONOV** kabi 4-«V» ning yosh rassomlari o'zlari chizgan rasmlardan namunalar jo'natishgan.

Mana, qumqo'rg'onlik tengdoshlaringizning maktublari bilan qisman bo'lsa-da tanishdingiz. Ularning bu qadar faolliklarida 4-umumta'lim maktabidagi jonkuyar ustozlarining ham xizmatlari kattaligi sezilib turibdi.

Gazetamizni chop etish uchun so'nggi tayyorgarlik ishlari nihoyasida yetib qolgan bir paytda qumqo'rg'onlik bolalardan yana sakkizta xat oldik va quvonchimizga quvonch qo'shildi. Mazkur maktabning o'quvchilari bo'lgan **Nafisa ESHBOYEVA, Nodirbek YANGIBOYEV, Jalolbek UZOQBERDIYEV, Mahliyo AVAZOVA, Xo'jamiyor TANGIROV, Umidjon HAMZAYEV, Kamol ISMOILOV, Safarali ATARBAYEV** bahor, Navro'z, yashab turgan xonadonlari haqida to'liqlanib hikoya qilganlar.

**UMIDJON**

O'quvchilarni o'z nashrlari bilan yaqindan hamkorlik qilishlari uchun yo'l-yo'riq ko'rsatib, imkoniyatlar yaratib berayotgan fidoyi insonlarning ibratli ishlarini har qancha maqtasak oz. Bunday ustozlar safi yanada ko'payishini istardik.

**Yusuf OG'AJA**

**DIYORBEB**

**Bizning maktabimiz kutubxonasidan ikki ming dona badiiy adabiyotlar, mingga yaqin metodik qo'llanmalar, uch nusxada O'zbekiston Milliy ensiklopediyasi, ingliz va rus tillaridagi lug'atli kitoblar hamda Jahon banki tomonidan taqdim qilingan yangi lotin alifbosidagi badiiy adabiyotlar o'rin olgan.**

O'quvchilar o'rtasida kitobxonlikni targ'ib qilish, ularning qalbida vatanparvarlik, ezgulik, insoniy fazilatlariga mehr-muhabbat uyg'otish hamda axborot olish madaniyatini shakllantirish maqsadida maktabning 1-4-sinf o'quvchilari o'rtasida «Kitobim – oftobim» haftalik tadbirlari, 5-9-sinf o'quvchilari o'rtasida «Adabiyot kunlari»,

## KITOBXONLAR BAYRAMI

«Kitob taqdimoti», «Eng yaxshi kitobxon o'quvchi» tadbirlari o'tkazilyapti.

Yaqinda 7-sinf o'quvchilari ishtirokidagi «Kitob taqdimoti» tadbirida o'quvchilar sevimli bolalar yozuvchisi Xudoyberdi To'xtaboyevning «Mungli

ko'zlar», O'tkir Hoshimovning «Dunyoning ishlari», Chingiz Aytmatovning «Oq kema» asarlarini uch shart asosida yoritib berdilar.

Tadbirda faol ishtirok etgan o'quvchilar maktab ma'muriyati tomonidan rag'batlantirildi.

**Gulbegim SHODIYEVA, Navoiy viloyati, Uchquduq tumanidagi 7-umumta'lim maktabi kutubxonachisi**

**Mulohaza uchun mavzu**

## KO'RKAM KO'CHALAR

**ozodaligi uchun har birimiz qayg'urishimiz kerak**

Yurtimizga ko'z tegmasin, kundan kun ko'rkiga ko'rk qo'shilib bormoqda. Ayniqsa, bir-biridan go'zal binolarini aytmayisizmi! Ko'rgan sari ko'zing quvnaydi. Mana shunday yoqimli o'ylar og'ushida shahrimiz ko'chalarini kezar ekanman, ilgari istiqomat qilgan ko'p qavatli uyimizdagi qo'shnimiz Farog'at aya yodimga tushadi. Biz uchinchi, aya esa ikkinchi qavatda yashardi.

Farog'at aya juda ozoda edi. O'zi ham tinmas, qo'shnilarga ham «tinchlik» bermasdi. Har haftaning shanba kuni, albatta, «shanbalik» o'tkazardi. Ayrimlar ayaning tinib-tinchimasligidan ensasi qotar, hatto dilini ham og'ritgan paytlar bo'lardi. Farog'at aya uyimizning atrofiga chiqindi tashlashlariga umuman yo'l qo'ymasdi-da. Yolg'iz yashagani uchunmi, har doim derazadan tashqariga qarab o'tirardi. Devor tagiga chiqindi tashlab ketayotgan biror kimsani ko'rdi, deguncha, albatta, qattiq tanbeh berardi. Xullas, haligi odamni tavbasiga tayantirib, chiqindini oldirardi. Biz – yoshlar ham har hafta Farog'at ayaning qistovi bilan qo'limizga supurgi olib ko'chalarni supurar, uni turli chiqindilardan tozalardik.

Bir kuni to'satdan Farog'at aya vafot etdi. Hamma hayron, kechagina soppa-sog' yurgan buvi kutilmaganda qazo qilsa... Bundan darak topgan qo'shnilarning barchasi buvi uchun qattiq kuyunishdi. Ayaning ma'rakalarini o'tkazgach, barcha yana o'z ishi, tashvishi bilan band bo'ldi. Oradan ko'p o'tmay biz ham boshqa yerga ko'chib ketdik.

Uch yil deganda zarurat yuzasidan qadrdon «dom»imizga yo'lim tushdi. Tanish ko'chalardan yurib borar ekanman, atrofdagi manzaradan ko'zim zavqlandi. Hammayiq ozoda, sarishta. Yo'laklarda nafaqat chiqindi,

hatto qog'oz parchalari ham ko'zga tashlanmaydi. Sal naridagi ochiq yerda chiroyli bolalar maydonchasi barpo etilibdi. Atrofdagi anvoiy gullar esa dilga zavq bag'ishlaydi. Qadrdon qo'shnilar bilan ko'rishib, suhbatlashib bildimki, Farog'at ayaning vafotidan so'ng buvining qadri juda bilinibdi. Uy atrofidagi ko'chalarda turli chiqindilar ko'paya boshlagach, duch kelgan yerga axlat tashlayotgan va turli chiqindilar uloqtirib ketayotganlarga shu «dom»da yashovchi yosh-u qari barcha birdek tanbeh beradigan va har shanba kunlari buvi boshlab bergan «shanbalik»larni o'tkazadigan bo'lishibdi. Shu kuni uyga xushkayfiyatda qaytdim.

Odatda, ko'cha-ko'yidagi notanish qariyalarning biror nojo'ya xatti-harakatlarimizga tanbeh berishi biz uchun erish tuyuladi. Ammo yaxshilab o'ylab ko'rilsa, ularning tanbehlarida hikmat bor va bu faqat bizning foydamiz uchun xizmat qiladi.

Shunday emasmi, aziz o'quvchi!

**Jamshid MATYOQUBOV**

# Ozodaning nurli olami

Tengdoshingiz Ozoda Egamovaga hamma havas bilan qaraydi. U tasviriy san'at, eh-algebra, tarix, ingliz tili, eh-qayisi fanlar o'qitilsa, bar-qaysi fanlar o'qitilgan yoshlardan.



U ayni paytda Jizzax viloyatidagi 21-umumta'lim maktabining 9-sinfida a'lo baholarga o'qimoqda. Ozoda fanlarni yaxshi o'zlashtirish bilan chegaralanib qolmay, qator yutuqlarni qo'lga kiritmoqda. U sportning basketbol, voleybol, tennis turlariga juda qiziqadi. Har bir qiz orzu qilganidek, zardo'zlik, to'qish, munchoqlardan turli bezakli buyumlar yasashning ham uddasidan chiqadi. Ozoda milliyligimiz ufurib turgan rasmlarni tasvirlashga harakat qiladi. O'tgan yili «Kamalak yulduzlari – 2014» bolalar ijodiyot festivalida faol ishtirok etdi. Iqtidorli o'quvchi kelgusida bundan ham ulkan yutuqlarni qo'lga kiritish niyatida.



Orzular ortidan odimlayotgan Ozodaning nurli olamiga ko'z tegmasin, deymiz.

LAYLO

# Bilimlar bellashuvining bilimdoni



Inson bir umr orzu qilgan maqsadiga erishish, uning amalga oshirish uchun harakat qilib yashaydi. Yo'lidagi barcha mashaqqatlarni yengib, dadil qadam tashlasagina o'z orzusiga erishadi.

Andijon viloyati, Ulug'nor tumanidagi 5-umumta'lim maktabida ham mana shunday yuksak cho'qqilarni ko'zlab ta'lim olayotgan bilimdon o'quvchilarning talaygina. Ular orasida o'zbek tili fanidan «Bilimlar bellashuvi»ning viloyat, respublika bosqichlarida qatnashib, faxrli o'rinni egallagan Saida Yunusova, Gulhayo Anorboyeva, Odina Abduraimovalar shular jumlasidandir.

O'tgan o'quv yilida Odina Abduraimova ta'lim maskaniga bir alam quvonch olib keldi. «Bilimlar bellashuvi»ning viloyat bosqichida qatnashib, o'zbek tili fanidan 1-o'rin sohibi bo'ldi. O'shanda g'olib qizaloqning yuzidagi tabassum, qalbidagi hayajon barchani sevitirib yubordi.

Bilimdon qiz yaqindagina qo'shaloq muvaffaqiyatga erishdi. Maktabdoshlari orasida bu gal ham «Bilimlar bellashuvi» bo'yicha o'zbek tilidan 1-o'rinni egalladi hamda «Orasta qizlar» tanlovida ham g'olib bo'ldi.

Odina hozirda 6-«B» sinfda ta'lim oladi. Namunali xulq sohibasi jamoat ishlarida faol ishtiroki bilan tengdoshlari va ustozlar orasida hurmat qozongan. Ilm cho'qqilarini zabt etishga harakat qilayotgan qizchani orzu bundan-da yuqori natijalarga erishib, kelgusida yurtimizning eng bilimdon o'quvchilaridan biri bo'lish. Odinaning orzulari ushlishiga tilakdoshimiz.

Muslima MIRAHMEDOVA,  
Andijon viloyati

Farg'ona viloyati, Quva tumanidagi 2-umumta'lim maktabida o'quvchilarning muvaffaqiyatli savodxonligi hamda boshqa fanlardan olayotgan bilimlarini yanada chuqurlashtirish maqsadida «Imkon shou» intellektual o'yini muntazam o'tkazilib borilmoqda.

## «IMKON SHOU» MAKTABIDA

9-sinfilar o'rtasida bo'lib o'tgan «Imkon shou» bellashuvida «Yosh tarixchi» va «Kelajak avlod» guruhlari 3 ta shart bo'yicha o'zaro bellashdilar.

Tadbir ishtirokchilariga «Tezkor savollar» va «Pantamimo» shartlari juda manzur bo'ldi. Murosasiz kechgan bahsda «Yosh tarixchi» guruhi 73 ball to'plab, g'oliblikni qo'lga kiritdi.

Barno Mansurova, Diyora Abdurahmonova, Xurshida Erkinova, So'g'diyona Abdullayeva, Dilnavoz Toirova va Dilshoda Aminjonova kabi o'quvchilar tadbirga faol ishtirok etdilar.

– «Imkon shou»ga maktab o'quvchilarining qiziqishi kundan kunga ortib bormoqda, – deydi tarix-huquq fani o'qituvchisi Yorqinoz Qirg'izboyeva. – Bunday bilimlar bellashuvi yutuqlarni yanada mustahkamlash uchun muhim poydevor bo'ladi.

Muhammadjon MAHMUDOV,  
Farg'ona viloyati



N. SULTONOV o'lgan suratlari

## USTOZLARNING ISHONCHIN OQLAB...

Suratdagi bu qiz poytaxtimizning Olmazor tumanidagi 233-umumta'lim maktabining 7-«V» sinf o'quvchisi Aziza Muhiddinova bo'ladi. A'lochilardan biri bo'lgan bu o'quvchi maktab faollaridan.

U sinfdoshlarini davomatini doimiy nazorat qilib boradi. Tashkilotchiligi bois, sinf rahbari Charos Yo'ldoshevaning ishongan o'quvchisi. Aziza har bir darsni puxta o'zlashtirib boradi. Ayniqsa, ingliz, rus tili va tarix fanlarini sevib o'qiydi. Shundan bo'lsa kerak, tirishqoq o'quvchi yaqinda bo'lib o'tgan «Bilimlar bellashuvi»da rus tili, tarix fanlaridan maktabdoshlari orasida 1-o'rin sohibi bo'ldi. Tanlovning tuman bosqichida esa mazkur fanlardan yuqori ball to'plab, ustozlari ishonchini oqladi.

Maktabdoshlarining faxri ta'lim maskanida o'tkaziladigan barcha ko'rik-bellashuvlarning faol ishtirokchisi. «Vatan himoyachilari – el suyanchi», «Yosh kitobxon», «Ajoyib referatlar» tanlovlarida Azizaning betakror chiqishlari hay'at a'zolari tomonidan yuqori baholalanib, maqтов yorlig'i hamda esdalik sovg'alari bilan taqdirlandi.

Aziza Muhiddinova haqida so'raganimizda, maktab direktori Vilyandt Alla Nikolayevna o'quvchilari orasida iqtidor egalari ko'pligi, Aziza ham iste'dodli tengdoshlari kabi maktab yuzi ekanini ta'kidladi.

A'lochi qiz ayni damlarda bilim va dunyoqarashini kengaytirish maqsadida tinimsiz izlanish bilan band.

NURBEK



# Buxorolik Shamsiqamar

Ilm-u urfon shahri bo'lgan Buxoro sharifida dunyoni bo'ylayotgan navnhollar kun sayin ortib bormoqda. Kamalakdek rango-rang ijod sohibasi o'lotlik Shamsiqamar Sharipova shular jumlasidandir.

Bo'lajak shoira o'tgan yili «Kamalak yulduzlari» ko'rik-tanlovining respublika bosqichida faxrli o'rinni egalladi. Ijodkorning shu kunga qadar ikkita she'riy to'plami nashrdan chiqdi. Bir necha ijodiy ishlari tuman, viloyat gazetalariida chop etildi.

– She'rlarimni, eng avvalo, ustozim Mohigul Hojiyevaga o'qib beraman, – deydi yosh qalamkash.

– Qolaversa, yoshligimdan onamning hayotiy hikoyalari, kitobxonliklari mening adabiyotga bo'lgan qiziqishimga sabab bo'lgan.

Shamsiqamar bugungi kunda tengdoshlari Umidjon Hojiyev, Muxlisa Rahmonova, Nafisa Ro'ziyeva hamda Mahliyo Salohiddinova singari iste'dod egalari bilan birga yuksak marralar sari intilmoqda.

U hozirda shoira Zulfiyaning munosib izdoshi bo'lish uchun izlanmoqda. Tinib-tinchimas qiz kelajakda yurtimiz koriga yaraydigan inson bo'lishi, shubhasiz. Zero, osmoni musaffo, yurti tinch, farzandlari sog'lom mamlakat doimo yuksak marralarni zabt etishga qodir. So'zimiz yakunida Shamsiqamar kabi o'quvchilarga qarata shunday degim keldi:

**Ozod yurtda yayrab o'sgan sizlarsiz,  
Kelajagi porloq o'g'il-qizlarsiz,  
Ilm-u urfoniga dunyo lol qolgan,  
Ertamizga dadil boqqan ko'zlersiz.**

OLMOS

## XONADONIMIZ FAYZI

Bugun yurtimizda barchamiz intiqib, sog'inib kutgan so'lim bahor hukm surmoqda. Bunday damlarda binafshalarning iforidan to'yib-to'yib nafas olingiz keladi.

Shunday shirin xayollar bilan band bo'lib turganida, birdan telefon jiringladi.

– Nozimaxon qizim, uydamisani, men buvijoningman. Yakshanba kuni kelinglar, sizlarni ko'k somsa bilan bir mehmon qilay.

– Voy, buvijon, biz uchun sira ovora bo'lmang, aslida biz sizni mehmon qilishimiz kerak. Uzi, o'qishlar bilan band bo'lib, sizni ko'rgani ham borolmayotgan edim, – deyman ming xijolat bo'lib.

– Tushunaman, sizlardan sira xafa emasman, – deydi mehribonim.

Shanba kuni o'qishdan kelib, yumshoq qilib xamir qordim. Oldindan tayyorlab bo'lgan qiymani solib, chuchvaralar tugib chiqdim. Aslida chuchvara tugish juda mayda ish, ammo u buvijonimga atalgani uchun birpasda tayyor bo'ldi.

– Voy, Nozimaxon, bugun chuchvara ekan-da, – dedi onajonim quvonib.

– Buni buvijonimga atab tayyorlagan edim.

– Voy o'zimning aqlli qizimdan o'rgilay, barakalla, bu ishing juda yaxshi bo'libdi. Men ham buvijonimga nima olsam ekan, deb o'ylab turuvdim, – dedi oyim.

Yakshanba kuni ikki patnisda chuchvaralarni ko'tarib, buvijonimnikiga kirib bordik. Yonida, albatta, qatig'i va kashnich

ham bor. U kishi kashnichli qatigni yaxshi ko'radilar.

Buvim aytganlarini qilib issiqqina ko'k somsalar bilan mehmon qildi.

B u v i - j o n i m g a qarab, Siz x o n a - d o n i m i z farishtasi, qarindosh-urug'lardagi mehr rishtalarini bir-biriga b o g ' l o v c h i

Poytaxtimizning Yunusobod tumanidagi «Guliston» mahallasida istiqomat qilayotgan Mahmuda aya To'raqulova nafaqat nevaralari, balki mahallasidagi barcha o'quvchi-yoshlarning sevimli buvijonisidir.

bag'rikeng, oliyjanob insonsiz. Sizni hammamiz yaxshi ko'ramiz, deya ularning bag'riga singib ketgim keldi.

Nozimaxonning dil so'zlarini Manzura UBAYDULLAYEVA yozib oldi

Har safar buvijonim kelganlarida, uyimiz fayzga to'ladi.

## BUVIJONIM KELDILAR!

– Biz maktabga borganimizda, sizlarnikidek chiroyli daftar, kitoblarimiz bo'lmagan, – deya xotirlaydi buvijonim. – U davrlarda bitta poyabzalni butun oila kiyganmiz. Papka o'rniqa onamiz tikib bergan jildni, kaftimizda siyohdonni avaylab ko'tarib borardik. Bitta partada uch kishilashib o'tirganimiz, sinfimizda kattakon pechkaga navbat bilan o'tin qalaganlarimizni yaxshi eslayman... Eh, bolam-a, sizlar shunday chiroyli zamonda yashayapsizlar, hamma narsangiz muhayyo, bunga shukur qilib, maktabda yaxshi o'qinglar, – deya nasihat qiladilar.

Buvijonimning ko'rgan-kechirganlari bamisoli ertakdek. Ammo ana shunday og'ir sharoitlarda ham ular yaxshi o'qishgan, a'lo baholar olishgan. Bugun e'zozda yashayotgan buvijonimni barchamiz yaxshi ko'ramiz, hatto talashib ham qolamiz. Buvijonim bilan birga uyimizga nur kirib keladi. Ana shu nur bizni hech qachon tark etmasin!

**Maftuna SIROJIDDINOVA,** poytaxtimizning Mirzo Ulug'bek tumanidagi profilli mehnat ta'limiga ixtisoslashgan davlat umumta'lim maktabining 9-«B» sinf o'quvchisi

## Lesson 28

Ingliz tilini o'rganamiz! Let's learn English!

### Finish the sentences

(Gaplarni tugating)

Read each sentence. Write the correct word on the line.

- Mom will you \_\_\_\_\_ a cake. **take rake bake**
- The cat \_\_\_\_\_ on a mat. **pat sat bat**
- Go'zal used a \_\_\_\_\_ to clean the floor. **hop map pop**
- The goat likes to float in a \_\_\_\_\_. **float boat rote**

### Joke (Latifa)

#### Capable pupil.

One day a little boy came into a shop. «What can I do for you, little boy?» asked the shopman.

«How much money shall I have to give for five hundred grammes of sugar, two hundred grammes of coffee, two hundred grammes of butter and a kilogramme of bread?»

The shopman counted all of them for some time, then said, «You will have to pay two dollars and fifty cents».

«Thank you for your help» said the boy. «It was my homework for tomorrow».

### It is interesting (Bu qiziq)

In Great Britain at eleven o'clock a lot of people stop to work and have a cup of coffee or tea, or if they are at school, a bottle of milk. This mid-morning break is called «elevens». «Elevens» is also time for a talk, and when you are at school there is always a lot to talk about.

Dinara SHAKIROVA tayyorladi

### Who? What? Where?

(Kim? Nima? Qayerda?)



Abbos has a horse. Abbas and the horse live on the farm. The horse sleeps in the barn at night. Abbas sleeps in his house. Abbas puts a saddle on the horse so she can take him for a ride. The saddle fits on the horse's back. With the saddle on, Abbas can ride the horse.



Who has a horse? \_\_\_\_\_  
What did Abbas put on the horse? \_\_\_\_\_  
Where does the horse sleep? \_\_\_\_\_

Umida G'OFUR qizi

### Write the words beginning with «S» («S» harfi bilan boshlanuvchi so'zlarni yozing)

|    |   |  |  |  |  |  |  |  |  |
|----|---|--|--|--|--|--|--|--|--|
| 1  | S |  |  |  |  |  |  |  |  |
| 2  | S |  |  |  |  |  |  |  |  |
| 3  | S |  |  |  |  |  |  |  |  |
| 4  | S |  |  |  |  |  |  |  |  |
| 5  | S |  |  |  |  |  |  |  |  |
| 6  | S |  |  |  |  |  |  |  |  |
| 7  | S |  |  |  |  |  |  |  |  |
| 8  | S |  |  |  |  |  |  |  |  |
| 9  | S |  |  |  |  |  |  |  |  |
| 10 | S |  |  |  |  |  |  |  |  |



- Quyosh.
- Yulduz.
- Kulgu.
- Shirinlik.
- Ko'cha.
- Uchqun.
- Shior.
- Tuz.
- Kumush.
- Suzmoq.



Laylo MANSURJONOVA, Qashqadaryo viloyati, Kitob tumanidagi 4-umumta'lim maktabining 7-«B» sinf o'quvchisi

# Bahor ko'ngil yozdi bog'larga...

Quyoshning qaynoq mehrini tuygan maysalarning yuzi yorishdi. Oppoq libos kiygan sehrli bog'larning maftunkor jilosidan ko'nglimiz yayraydi. Chug'urlangan qushlarning zavqi diliga sig'maydi. Bahor borliqqa jon ato etguvchi serfayz fasl. Ijod ahlini mahliyo aylagan yam-yashil olamning qiyosiga qiyos yo'q. Navro'z bayramini keng nishonlayotgan yurtidoshlarimizning qir-adirlar bag'rida tizilib ko'klamni qarshi olishi hamda bahoriy taomlar tayyorlashini ko'rib, ko'zlarimiz quvnaydi. Yuraklarning tub-tubidan quyilib kelayotgan satrlar sehri bu beqiyos makonni ta'riflashga ojiz.

Olislardan yangrayotgan turnalarning sohir navosida buyuk hikmat bor. Qo'y yili qizlarimizni qo'y-u qo'zilarga to'ldiryapti. Iloho, bu betakror makonimizga ko'z tegmasin. Bahor ijodkor o'quvchilarimizning ijodiga o'zining turfa xil ranglarini sochgani rost bo'lsin. Bahor ko'ngil yozgan bog'larga havas qilib, siz ham bir nihol qadasangiz, u bir kun kurtak yozib, o'z hosilini berishi aniq. Shunday ekan, ko'klam zavqi dilingizni aslo tark etmasin, deymiz...

AXTAMQULI



## BEBAHO MAKONIM

Sendan boshlanadi aslida bahor,  
Qo'shiqlar kuylaydi tunlari anhor.  
Senga yuragimni ayladim izhor,  
Bebaho oshyonim, mehr ummonim,  
Dunyoda tengi yo'q, aziz Surxonim!

Ariqlar bo'yida yalpizlar unar,  
Kapalaklar shodon gullarga qo'nar.  
Daraxtlar erta tong gullab uyg'onar,  
Ey mening bebaho nurli makonim,  
Dunyoda tengi yo'q, go'zal Surxonim!

Oybarchinlar kezar baxtini kuylab,  
Yurtning tinchliligi-yu quvonchin so'ylab.  
Men esa gulzorda yuribman o'ylab,  
Dilda bitilmagan cheksiz dostonim,  
Dunyoda tengi yo'q, ona Surxonim!

Gulimoh ABDULLAYEVA,  
Surxondaryo viloyati,  
Sariosiyo tumani

## VOHAMIZGA BIR KELING

Vohamizga bir keling,  
Uning jamolin ko'ring.  
Chiroy ochdi Urganchim,  
Sharqda bebaho ganjim.

Yangi, ko'rkam binolar,  
Ko'rib dilim zavq olar.  
Qurildi «Yoshlar bog'i»,  
Hilpirar yurt bayrog'i.

Shovot bo'yin kezaman,  
Bir hikmatni sezaman.  
Ajodlardan meros yurt,  
Topaversin e'zoz yurt.

Guliruxsor RO'ZMETOVA,  
Xorazm viloyati, Yangiariq  
tumanidagi 3-umumta'lim  
maktabining 5-«V» sinf  
o'quvchisi



## Q UYOSHGA QIYOSLADIM



Qo'limga qalam olib,  
She'r yozishni boshladim.  
Ona mehrini o'ylab,  
Barcha ishni tashladim.

She'rim bilan onamni,  
Quyoshga qiyosladim.  
Chuqur o'ylab so'ng uni,  
Ta'rif eta boshladim.

Osmondagi oy kabi,  
Nur taratar onamiz.  
Ular kirib kelganda,  
Yorishadi xonamiz.

Ibrohim ASATULLAYEV,  
poytaxtimizning Mirzo  
Ulug'bek tumanidagi  
171-umumta'lim  
maktabining  
4-«A» sinf  
o'quvchisi



Shahnoza  
MAMAJONOVA  
chizgan rasm

## KO'KLAM

Binafsha, yalpizlar barglarin yozsin,  
Lolalar qirlarga keltirsin salom.  
Qushlar kuylasinlar to'ldirib ko'ksin,  
Yellar maysalarga aytsinlar kalom.

Ariqlar labida yalpizlar unsin,  
Turnalar olisdan maktub keltirsin.  
Barchaning shodligi olamni tutsin,  
Ko'klam kelishidan sevinchga to'lsin.

Sevara A'ZAMOVA,  
Qashqadaryo viloyati, Koson  
tumanidagi 19-umumta'lim  
maktabining 8-«A» sinf o'quvchisi



ZUBAYDA olgan surat

## KASBIGA MUHABBATLI OPA

«Gulxan» jurnali haqida gap ketganda, ko'z o'ngimizda sevimli Muhabbat opamiz gavdalanadi.

Hayotda ayolga nima kerak, bizningcha javobi aniq: oilaviy baxt, tinchlik-xotirjamlik, sevimli kasbidan ilhomlanib yashash. Ana shunday o'z kasbidan baxt tuyib yashayotgan ijodkorlardan biri, qariyb qirq yildan ziyod umrini bir dargohda o'tkazib, sadoqat bilan xizmat qilib kelayotgan «Shuhrat» medali sohibi, «Yilning eng faol jurnalisti» sovrindori (2010-yil), o'z ijodi bilan bolalar qalbidan joy olib kelayotgan taniqli jurnalist Muhabbat Hamidovadir.

Hamkasbimiz mana shunday go'zal va maftunkor bahor faslida, Navro'z bayrami kuni qutlug' yoshga yetdi. Biz ko'p ming sonli gazetonlar, ijodkorlar nomidan mehribon, jonkuyar opamizga uzoq-umr, oilaviy xotirjamlik, bag'ri butunlik tilab qolamiz. Doimo yoshlarga ibrat bo'lib, atrofdagilarga mehr ulashishdan charchamang, deymiz.

TAHRIRIYAT



Sardor Tuzel qishlog'ida yashaydi. Qishloq etagidan Chirchiq daryosi oqib o'tadi. Shundanmi, bu yerlar juda go'zal. Serhosil bog'larga boy. U bahor chog'larida gulga burkangan bog'larda yugurib-yelib o'ynaydi. Do'stlarini bir dasta guldek chaman gullagan o'rik tagida suratga oladi. Qiyot bo'ylaridan dasta-dasta chuchmomalar teradi. Keyin, qishlog'imiz bahori qanday go'zal-a, shuning uchun ham uni yaxshi ko'raman-da, deb o'ylaydi.

Yozda esa o'rtoqlari bilan jarlikda sigir-qo'ylarini boqadi, daryoda mazza qilib cho'miladi. «Qoraqosh tepa»ning eng baland cho'qqisida o'tirilib, barcha nurlarini yig'ib olib, qip-qizil koptokdek osmonda osilib qolgan quyoshning botishini qop-qora ko'zlarini katta-katta ochganicha sehlranib tomosha qiladi. Oftobimiz juda ham chiroyli-a, shuning uchun ham qishlog'imizni yaxshi ko'rsam kerak, deb o'ylaydi.

Kuzda qishloq yanayam go'zallashib ketadi. Bog'da g'arq pishgan mevalarning hidi kishiga orom bag'ishlaydi. Hosil ko'pligidan yerga beixtiyor egilgan shoxlar orasidan qirg'ovulmi, bedanami potirlab osmonga ko'tariladi. Dalalarda poliz mahsulotlari pishadi. Hamma bir-biriga hosil yig'ishda hasharga chiqadi.

Daryo bo'ylaridagi tut, terak, tollarning yaproqlari sariq-qizg'ish rang oladi. Suvning tiniqligidan tagida suzib yurgan baliqlar, katta toshlar shundoq ko'rinish turadi. Sardor suvni kechgancha baliqlarni quvlaydi. Sirpanchiq zog'ora baliqlarni qo'li bilan ushlab oladi.

Balki daryodagi baliqlarning ko'pligi uchun Tuzel hamma qishloqdan yaxshidir, deb o'ylaydi Sardor.

Qishda hammayoq qor bilan qoplanadi. Siz ana shu paytda Tuzel bog'larini tomosha qiling. Oppoq qordan libos kiygan daraxtlar xuddi kelinchaklarga o'xshaydi. Ulardek nozik egilib, ona yerga salom beradi. Issiq kiyinib olgan bolalar «Qoraqosh tepa»ga chiqib yaxmalak uchishadi, chanalarga o'tirib olib, chuvillagancha pastga enishadi. Yuragi zavqqa to'lgan Sardor yana o'ylaydi, qishlog'imizning qishi buncha chiroyli, yoqimli-a! Shuning uchun ham qishlog'imizni yaxshi ko'raman-da.

Muhabbat HAMIDOVA



Qaysi yurt xalqining yashash tarzi, kayfiyatini bilmoqchi bo'lsang, ularning yuz-ko'zlariga boq, degan gap bor. Ozod va obod yurtimizning har go'shasida hayotidan mamnun, baxtdan sarmast umrguzaronlik qilayotgan oilalar va unda kamol topayotgan iqtidorli yoshlar talaygina.



## ORZULARI BIR OLAM

Andijon viloyatining chekka bir qishlog'ida el-yurt koriga yarab, farzandlarini har tomonlama yetuk, komil inson qilib tarbiyalash uchun harakat qilib kelayotgan Avazbek Qodirovlar xonadoni ham shular sirasiga kiradi.

Bu oilada voyaga yetayotgan Sarvinov Qodirova Ulug'nor tumanidagi 20-umumta'lim maktabining 9-sinf o'quvchisi. U barcha fanlarni a'lo baholarga o'zlashtiradi. Sinfdan tashqari o'tkaziladigan tadbirlarning ham faol ishtirokchisidir. Odobli qiz tevarak-atrofidagi do'stlari va ustozlari bilan hamisha samimiy munosabatda. U bugungi kunda yoshlar uchun yaratilayotgan imkoniyatlardan unumli foydalanadi.

Prezidentimizning qizlar sportiga alohida e'tibori Sarvinovni ham befarq qoldirmadi. U tumandagi Bolalar sport majmuasi badiiy gimnastika mashg'ulotlariga to'rt yildan beri qatnashib keladi. Gimnastikachi o'tgan yili «Quvnoq karvon» xalqaro turnirida 2-, «Yoz - 2014» viloyat birinchiligida 1-, «Konstitutsiya - baxtimiz qomusi» viloyat kubogida 1-o'rin egasi bo'ldi.

Sarvinovning maqsadi kelajakda dunyo miqyosida o'tkaziladigan musobaqalarda qatnashib, O'zbekistonimiz bayrog'ini yuksaklarga ko'tarishdir. Biz uning orzulari amalga oshishiga tilakdoshmiz.

N. JAVHAROVA

## BELIDA BELBOG'I BORLAR

Sportchi shu kunga qadar kichik turnirlardan

jahon arenasigacha bo'lgan yo'lni bosib o'tdi. Uning erishgan zafarlarida murabbiy Baxtiyor Turg'unpo'latovning hissasi cheksiz.

Murodjon dastlab tuman, so'ngra viloyat musobaqalarida g'oliblikni qo'lga kiritdi. U o'z ustida tinimsiz ishlashi tufayli Toshkent viloyati, Parkent tumanida belbog'li kurash bo'yicha 1999-2000-yillarda tug'ilgan o'smirlar o'rtasida o'tkazilgan O'zbekiston chempionatida o'z vazn toifasida 1-o'rinni qo'lga kiritdi.

O'tgan yili bahor oyida Xiva shahrida mazkur sport turi bo'yicha 1997-1998-yillarda tug'ilgan o'smirlar o'rtasidagi O'zbekiston chempionatida 42 kg. vazn toifasida 1-o'rinni qo'lga kiritdi va bu musobaqa jahon chempionatiga saralash vazifasini o'tadi. Ko'p o'tmay Farg'ona viloyati, Zo'yovon tumanida 1997-1998-yillarda tug'ilgan o'smirlar o'rtasidagi O'zbekiston kubogida 46 kg. vaznda faxrli 1-o'rinni qo'lga kiritdi. Endilikda Murodjon zimmasida nafaqat viloyat, balki mamlakat sharafiga himoya qilish mas'uliyati turardi.

2014-yilning 13-16-dekabr kunlari Rossiya Federatsiyasining Tatariston Respublikasi, Tyulyachi shahrida bo'lib o'tgan jahon chempionatida polvonimiz yosh ishtirokchi sifatida faxrli 2-o'rinni qo'lga kiritdi.

Quvonarlisi, chempionatda mamlakat terma jamoasidan ishtirok etgan 22 sportchining uch nafari Uychi tumani vakillari edi. Murodjon tashqari Abdugahhor Ahmadjonov hamda Abdurashid G'aniyev musobaqada 3-o'rinlarni egallashdi.

Uychilik polvon o'z oldiga yanada zalvorli maqsadlarni qo'yar ekan, yurt bayrog'ini balandlarga ko'tarib, yuqori marralar sari borishga, o'z Vatani, xalqiga sadoqatli farzand sifatida xizmat qilishga astoydil bel bog'lagan.

Maftuna TOHIRJON qizi



Xurshid YUNUSOV

## MUHRIDDINNING QUVONCHI CHEKSIZ

Toshkent viloyatining Ohangaron tumanidagi 52-umumta'lim maktabining 8-«E» sinf o'quvchisi Muhridin Mahmudov besh yildan buyon Sharq yakkakurashining kurash, kombat - aykido, qo'l jangi hamda turon yakkakurashi turlari bilan shug'ullanib keladi.

Bu yilning o'zida Muhridinning erishgan muvaffaqiyatlariga havas qilsa arziydi, - deydi sinf rahbari Malohat Abdulkarimova. - U yil boshida 1999 - 2000-yilda tug'ilgan o'smirlar o'rtasida kombat - aykido bo'yicha O'zbekiston ochiq chempionatida 2-o'rinni, Toshkent viloyati, Yangiyo'l shahrida qo'l jangi federatsiyasi tomonidan o'tkazilgan birinchilikda 1-o'rinni egallab, atrofdagilar olqishiga sazovor bo'ldi. Murabbiy Sadirxon O'ktamov ham shogirdi yutuqlaridan faxrlanishi, uning kelajakda sport arenalarida o'z o'rnini topishiga ishonch bildirdi.

## FUTBOLCHI QIZLAR YUTUG'I

Xorazm viloyatining Yangibozor tumanidagi 9-sonli futbolga ixtisoslashtirilgan maktab-internatida sportsevar o'quvchilar futbol, belbog'li kurash, yunon-rum kurashi bo'yicha shug'ullanib kelishmoqda. O'tgan yillar mobaynida bu maskandan Jahon, Osiyo chempionlari yetishib chiqdi.

«To'maris» futbolchi ayollar jamoasi oliy ligada to'p surish imkoniyatiga ega bo'ldi. Jamoa a'zolaridan Dilnoza Bektemirova, Rayhona Bekberganova va Dilnoza O'tanovalar Osiyo chempionatida to'p surish imkoniyatini qo'lga kiritishdi. Shuningdek, Gulmira Tojiboyeva hamda Barchinoy Eshmuradova ham eng yaxshi futbolchi qizlardan hisoblanadi. Quvonarlisi, Dilnoza Bektemirova hozirda O'zbekiston terma jamoasi a'zosi.

Futbolchi qizlar o'tgan yilning dekabr oyida Arabiston yarim orolida joylashgan Bahraynda o'tkazilgan saralash musobaqalarida Osiyo chempionati o'yinlarida qatnashish uchun yo'llanmani qo'lga kiritishdi. Shu bilan birga, Xalq ta'limi vazirligi sovrini uchun 1999-2000-yillarda tug'ilgan o'smirlar musobaqasida jamoa 1-o'rinni egallashdi.

Maktab-internati direktor o'rinbosari Mohira Sobirova biz bilan suhbatda Xorazm viloyatida faoliyat ko'rsatuvchi sportning mazkur turiga ixtisoslashtirilgan maktablar o'rtasida «Eng yaxshi futbol maktabi» nominatsiyasi g'olibi bo'lganini faxrlanib so'zlab berdi.

Dilbar PRIMOVA, Uchtepa tumanidagi 296-umumta'lim maktabining 7-«A» sinf o'quvchisi



Bahor! Bilasanmi kelishingni qanday bilib olganimni? Aytishlariga qaraganda, tashrifingni daraxtlarga biroz oldinroq aytib qo'yar emishsan.

Buni asta-sekin ko'z ochayotgan kurtaklaridan bilib oldim. Qalbim ravshanlashib, pardo-andoz qilishga shaylanayotgan tabiat qo'ynida sevinib o'tirar ekanman, kuchini yo'qotib borayotgan qish dardi ichiga sig'may ketdi. Yig'lab yomg'irning tinchini buzdi. Aksiga olib, soyabon olib chiqmagan ekanman. Uzoq yig'ladi. Shu damda uni ovutmoq bo'lib, so'z javohirlaridan durlar tiza boshlayman. Durlar shodasiga burkangan bulutlar charaqlab chiqqan quyoshga yo'l ochib berishdi. Mana bugun o'z charog'on oftobing bilan turfa gullar sochilgan, yam-yashil gillarningni to'shab, yo'l-yo'lakay sayroqi qushlarni ortingdan ergashtirib, shirin ko'k somsalar, sumalaklar-u halimlarni boplab pishirib beraman, degan niyatlar bilan qarshimizda samimiy tabassum qilib turibsan. Sen kelishing bilan ona tabiat yayrab ketadi. Suyunganidan varraklar osmonga uchadi.

Bayram-u shodiyonalarining bahona mehrimizni tovlanitirayotganliging uchun ham seni o'zgacha umid bilan kutamiz va qarshi olamiz. Sening tashrifing tabiatga o'zgacha libos kiydiradi. Shuning uchun ham seni go'zal kelinchaklarga qiyoslaydilar. Doimo shunday bo'lib qol.

**Nodira ARSLONOVA**



«Ko'klam quvunchi»



«Ochko'z boy» ertagi

**Dilshod ABDASHIMOV,**  
Toshkent viloyati, O'rta Chirchiq tumani



«Tog'lar bag'rida»

**O'g'iloy ABDURAIMOVA,**  
Sirdaryo viloyati,  
Mirzaobod tumanidagi  
26-umumta'lim  
maktabining 8-sinf  
o'quvchisi

## BILASIZMI?

Eng qulay transport vositasi bo'lgan – metro dunyoda ilk bor Londonda 1863-yilda ishga tushirilgan. Toshkent metrosi esa 1977-yilda aholiga xizmat ko'rsata boshlagan.

Dunyodagi eng aqlli qush, bu Afrikaning kulrang to'tisi hisoblanadi.



Olimlarning aytishlaricha, erta labki uyqudan turgan katta yoshli odamning bo'yi odatdagidan 2 santimetrga uzayarkan. Kun bo'yi tik oyoqda yurib charchagan odamning bo'yi esa aksincha, kechga borib, 2 sm.gacha qisqarishi aniqlangan.



Hayvonlar ichida eng darozi hisoblangan jirafa tilining uzunligi yarim metrcha kelar ekan. Buning ustiga uning qop-qora rangda ham bo'lishi juda qiziq-a!?

Parrandalar ichida o'rdak sovuqqa chidamlilik bo'yicha birinchi o'rinda turadi.

**DILOROM tayyorladi**

## «TONG YULDUZI» KROSSVORDI



**BO'SH O'TIRMAI, BOSH QOTIR!**

**Savollar:**

1. Niyat, istak...
2. Aqlli, donishmand.
3. «Gullar shahri».
4. Chiroyli, ko'rkam.
5. Poytaxti Sana shahri bo'lgan davlat nomi.
6. Urf-odat.
7. So'zning atash ma'nosini o'rgatuvchi tilshunoslik bo'limi.
8. Langarcho'p bilan yuradigan odam.
9. Yirik, katta...
10. Firdavsiyning «Shohnoma» asarida tasvirlangan zolim shohning ismi.
11. Tartib-qoida.

**Tuzuvchi: Zilola JAMOLOVA,**

**JDPI qoshidagi 2-akademik litseyi 3-bosqich o'quvchisi**

## TOPISHMOQLAR

To'rt faslda to'rt xildir,  
O'zi esa ko'p turdir.

Ko'klam giyohin zo'ri,  
Hammaga darmondori.

**Dilshodjon MAMADIYOROV,**  
Navoiy viloyati, Nurota tumanidagi 26-umumta'lim maktabining 8-sinf o'quvchisi

8

23-mart 2015

Bosh muharrir  
**Feruza ADILOVA**

### Muassislar:

O'zbekiston Matbuot va axborot agentligi,  
O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligi,  
«KAMOLOT» yoshlar ijtimoiy harakati  
Markaziy Kengashi,  
«SOG'LOM AVLOD UCHUN» hukumatga qarashli bo'lmagan xalqaro xayriya fondi.

Gazeta O'zbekiston Matbuot va axborot agentligida  
0208-raqam bilan 2007-yil  
2-fevralda ro'yxatdan o'tgan.

**TAHRIR HAY'ATI:**  
Omonulla YUNUSOV,  
Abdug'ani XOLBEKOV,  
Bahodir G'ANIYEV,  
Svetlana INOMOVA,  
Murtazo SULTONOV,  
Zoir ISAJONOV,  
Vahobjon RAJAPOV,  
Zikrilla TESHABOYEV,  
Feruza JALILOVA,  
Feruz MATYOQBOV  
(mas'ul kotib)

**Navbatchi muharrir**  
Axtamqul KARIMOV  
**Rassom**  
Feruzbek KAMOL o'g'li

**Manziliimiz:**  
Toshkent shahri,  
Navoiy ko'chasi, 30-uy.  
Indeks: 100129.  
Obuna indeksi: 198.  
e-mail:  
[info@tongyulduzi.uz](mailto:info@tongyulduzi.uz)  
[www.tongyulduzi.uz](http://www.tongyulduzi.uz)  
Tel./faks: 244-63-08  
Tel./faks:  
(99871) 244-38-10

«O'zbekiston»  
NMIUda chop etildi.  
Tahririyatga kelgan barcha qo'lyozmalar tahrir qilinadi, mualliflarga qaytarilmaydi.  
Haftaning dushanba kuni chiqadi.  
Shakli A-3, 2 bosma taboq.  
ISSN 2010-6092  
Adadi – 48300  
Buyurtma – S 2457